

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 1325 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	



FRANSUZ TILIDA FONOGRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA



Islomov Dilshod Shomurodovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti, doktorant (DSc)

d.s.islomov@buxdu.uz

<https://orcid.org/0000-0001-8793-8031>

<https://buxdu.academia.edu/DilshodIslomov>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tilida fono-grafostilistik vositalarining tipologiyasi va klasifikatsiyasi haqida tilshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, fikr-mulohazalari misollar asosida tahlil qilindi, mazkur vositalarning inson ruhiyatiga ta'siri darajasi ko'rsatib o'tildi. Inson ruhiyatini ifodalashda fono-grafostilistik vositalarining o'rni muhim ekanligi, shu bilan birga, fono-grafostilistik vositalar orqali yozuvchi yoki nutq so'zlovchining ichki kayfiyati, emotsional holati va subyektiv qarashlari ham aniqlanadi.

Kalit so'zlar: fonetika, fonologiya, grafologiya, stilistika, tipologiya, segment va supersegmentlar, fono-grafostilistik vositalar, fonika, talaffuz, yozuv, nutq tovushlari, ruhiyat, hissiyot, psixologiya.

Abstract. This article analyzes, through illustrative examples, the scientific and theoretical views of linguists on the typology and classification of phono-graphostylistic devices in the French language and demonstrates the degree of their influence on the human psyche. The study emphasizes the significant role of phono-graphostylistic devices in expressing the inner world of an individual. Moreover, it reveals that these devices make it possible to identify the writer's or speaker's inner mood, emotional state, and subjective attitudes.

Key words: phonetics, phonology, graphology, stylistics, typology, segments and suprasegments, phono-graphostylistic devices, phonics, pronunciation, writing, speech sounds, psyche, emotions, psychology.

Аннотация. В данной статье на основе примеров проанализированы научно-теоретические взгляды и концепции лингвистов, касающиеся типологии и классификации фоно-графостилистических средств во французском языке, а также показана степень их воздействия на психическое состояние человека. Подчеркивается важная роль фоно-графостилистических средств в выражении внутреннего мира человека. Вместе с тем отмечается, что посредством фоно-графостилистических средств выявляются внутреннее настроение, эмоциональное состояние и субъективные взгляды автора или говорящего.

Ключевые слова: фонетика, фонология, графология, стилстика, типология, сегменты и суперсегменты, фоно-графостилистические средства, фоника, произношение, письмо, речевые звуки, психика, чувства, психология.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, insoniyat paydo bo'lgan vaqtda ular o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lgan qo'l harakatlari va mimikalar ham inson ruhiy holati va xarakterlarining turli darajalarini o'zida aks ettirgan. Bundan tashqari, arxeologik topilmalar va Neolit davriga tegishli bo'lgan toshlarga o'yib yozilgan rasmlar orqali qadimgi insonlarning nafaqat turmush tarzi va mashg'ulotlari, balki ularning ijtimoiy munosabatlari, ruhiy kechinmalari va emotsional tajribalari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, til va yozuv insoniyat

tarixida nafaqat muloqot vositasi, balki psixologik va madaniy tafakkurning aks etishi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, qadimgi yozuvlar va piktogrammalar orqali tilning vizual va fonetik xususiyatlari ham o'rganilishi mumkin, bu esa tilning rivojlanish tarixini chuqur tushunishga imkon yaratadi.

Eramizdan oldingi to'rt mingyillikda esa Mesopotamiyada birinchi yozuv paydo bo'lishi, undan keyingi davrlarda esa Romanlar davlatida keyingi yozuvlar paydo bo'lganini ham yaqqol ko'rish mumkin. Yozuvlar alifboni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu jarayonlar tilning strukturaviy rivojlanishini rag'batlantirib, so'zlarning va gaplarning grammatik tuzilishiga sezilarli turtki beradi. Shu tariqa, yozuvlar inson tafakkurining murakkabligini, muloqot ehtiyojlarini va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi vosita sifatida shakllangan. Shuningdek, yozuv orqali insonlar orasidagi bilim almashinuvi va madaniy merosning saqlanishi ham amalga oshdi, bu esa tilning rivojlanishida va fono-grafostilistik vositalarning shakllanishida muhim omil bo'lgan.

Tilshunoslikdagi mazkur rivojlanishlar inson tafakkuri mahsuli hisoblanib, tafakkur tilning fonologik, leksik, morfologik va semantik qatlamlarini rivojlantirishda hamda grafologiyaning shakllanishiga hissa qo'shadi. Tilshunoslik bo'limlari psixologiya bilan kesishgan holda inson ruhiyati va muloqot jarayonlarini o'rganish imkonini beradi, fonostilistika va grafologiyaning birlashuvi nutq va yozuv orqali insonning ichki dunyosi va emotsional holatini yanada aniqlik bilan baholashga yordam berishi tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohalarida keng qo'llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Tilshunoslikda tovushlarning stilistik xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi sohasi tovush stilistikasi, stilistik fonetika, fonetik stilistika, fonologik stilistika, fonika kabi nomlar bilan atalib kelinmoqda"¹. Darhaqiqat fonostilistika tovushning fonetik xususiyatlari, nutqning emotsional ekspressiyasini va stilistik rangini aniqlashga imkon beradi. Shu jihatdan u adabiy matnlarni, nutq san'atini va psixolingvistik tahlillarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, fonostilistika turli nutq janrlarida ishlatiladigan tovush vositalarining differensial xususiyatlarini o'rganib, ularning stilistik rolini aniqlash imkonini beradi.

N.I.Portnovaning fikricha, fonostilistika – muloqotning turli jabhalari va vaziyatlarida fonetik vositalarning amal qilish qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Masalan, urg'u va intonatsiyaning kontekstga qarab o'zgarishi matn mazmuni va emotsional ohangini qanday shakllantirishini aniqlash mumkin. S.M.Gayduchik² esa fonostilistika fonetikaning bo'limlaridan biri bo'lib, uning shakllanish jarayoni tugagan, deb bo'lmaydi, chunki bu yangi yo'nalishning tadqiqot predmeti hali oxirigacha aniqlanmagan. Buning natijasida, fonostilistika ilmiy jihatdan doimiy yangilanish va takomillashtirishni talab qiluvchi dinamik soha hisoblanib, nutqning kontekstual, sotsiokultural va psixologik jihatlarini ham hisobga oladi. Fonostilistika inson nutqining estetik va emotsional qatlamlarini tahlil qilish orqali adabiy va nutqiy ijodda tovush vositalarining samarasini baholaydi.

"Dunyo tilshunosligida mavjud bo'lgan olimlarning fonostilistika to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlari haqida fikrlar va ularga munosabat bildiradigan bo'lsak, ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, fonostilistika – yunoncha "phōnē – ovoz, tovush, shovqin + stilistika" ma'nolarini anglatadi"³. Fonostilistika har doim muloqot istagidan kelib chiqadi va bu soha lisoniy birliklarning talaffuz variantlari va aloqa vaziyatlarida ishlash qonuniyatlarini o'rganadi va tilning stilistik hamda psixolingvistik tahlilini imkon qadar mukammal qiladi. Shu bilan birga, fonostilistika nutq tovushlarining ijtimoiy, emotsional va kontekstual rolini ham o'rganadi. Shuningdek, fonostilistika ma'lumotlari nutq terapevtik va pedagogik jarayonlarda qo'llanilishi mumkin, masalan, nutq rivojlanishi sust bo'lgan bolalar bilan ishlashda va h.k.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLILI VA NATIJALAR

Bilamizki, fonostilistik vositalar ikki guruhga bo'linadi: segment va supersegmentlar. Segmentlar qatoriga fonema, bo'g'in va tovushlar kombinatsiyasi kiradi, supersegmentlarga esa nutq tovushlari, urg'u, ohang (intonatsiya), pauza, ritm, tempo va tovush kuchi kabilardir. Masalan, tez va yuqori intonatsiyada aytilgan "Bonjour!" salomlashuvi quvnoq kayfiyatni bildiradi, sekin va past intonatsiyada aytilgan "Bonjour..." esa bezovtalik yoki tashvish belgisi bo'lishi mumkin.

1 Березин Ф.М. История лингвистических учений. М.: Высш.шк., 1975. –С.5

2 Абдуазизов А. Фонологическая система современного узбекского языка. – Ташкент, 1974. – С.56.

3 D.Sh.Islomov. "Fransuz va o'zbek tillarida fonostilistik vositalarning diskursiv-pragmatik tahlili" diss. Buxoro-2023. –B.41.



Nutq tovushlari inson talaffuz qiladigan va boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan birliklar bo'lib, tovushlarni hosil qilishda qatnashadigan inson a'zolari nutq a'zolari sanaladi. Shu orqali fonostilistika nutqning anatomik, fiziologik va akustik xususiyatlarini tahlil qiladi, shuningdek, nutq texnologiyalari va avtomatlashtirilgan til tanish tizimlarida qo'llanilishi mumkin.

Tilshunoslikdagi grafologiya bo'limi to'g'risidagi asosiy manbalarni Jean-Hippolyte Michon, Jules Crépieux-Jamin, Michelle Sardin, H. de Saint-Morand kabi fransuz tilshunos va grafolog olimlarning monografik asarlarida uchratish mumkin. Grafologiya insonning ichki kechinmalarini, xarakterini va psixologik holatini qo'l yozuvi orqali o'rganadi, shuningdek, u tahlilning ilmiy asoslarini psixodiagnostika va ijtimoiy psixologiya bilan bog'laydi.

Masalan, harflarning burchakli yoki dumaloq shakli orqali shaxsiyatning qat'iy yoki yumshoq ekanligini aniqlash mumkin.

Dumaloq va keng yozilgan harflar – samimiylik va ochiqko'ngillikni ko'rsatadi.

Keskin va burchakli yozuv – mantiqiy fikrlash va qat'iyatlilik belgisidir.

Chiziqlar orasidagi noaniqlik – stress yoki tashvish holatini bildiradi.

Bundan tashqari grafologiya yozuv vositalarining ergonomik, kognitiv va vizual xususiyatlarini ham o'rganadi.

Grafologiyada asosiy tamoyillar:

Harf kattaligi – ishonch darajasini ko'rsatishi mumkin. Masalan: AUJOURD'HUI JE TRAVAILLE SUR MA THESE.

- ✓ Confiance en soi, extrériorisation
- ✓ Besoin d'être remarqué
- ✓ Dynamisme et énergie

Yozuv yo'nalishi – yuqoriga yo'nalgan yozuv optimistik xarakterni, pastga yo'nalgan yozuv esa depressiv kayfiyatni ifodalashi mumkin.

Écriture ascendante:

Masalan:

- ✓ Je vais réussir
- ✓ Je vais réussir
- ✓ Je vais réussir

Optimisme, motivation

- Énergie et ambition
- Tendance à voir le côté positif des choses

Écriture descendante: Je suis un peu fatigué ...

- Fatigue, pessimisme
- Motivation faible
- Stresse et fatigue

Bosim darajasi (pression forte) – kuchli bosim qat'iyat va energiyaga, yengil bosim esa noziklik va sezgirlikka ishora qiladi.

Matn qalin, chiziqlar chuqur, ruchka bosilgan.

J'écris avec beaucoup de pression.

Interprétation:

- Forte énergie physique et émotionnelle
- Détermination, volonté ferme
- Réactions intenses

Harf va so'zlar orasidagi masofa(Espacement large entre les mots): keng, qisqa yoki o'rtacha bo'lishi ijtimoiy ochiqlik, yolg'izlik yoki balansni bildiradi.

Maslan:

Je marche lentement aujourd'hui.

Interprétation:

- Besoin d'espace personnel
- Indépendance forte
- Pensée claire

Harf va so'zlar orasidagi o'rtacha masofa (Espacement normale entre les mots):

Je marche tranquillement aujourd'hui.

- Équilibre dans les relations
- Réalisme et logique
- Bonne organisation mentale⁴

4 Michelle Sardin. La graphologie. Groupe Eyrolles, 2010. P-141.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi misollardan shuni tushunish mumkinki, grafologiya bo'limi so'zlarni, harflarni qay tartibda yozilishi insonlar ruhiyatini, xarakterini, ichki dunyosini, bir so'z bilan aytganda, barcha ichki kechinmalarini va ruhiy holatini yaqqol ko'rsatib beradi.

Fransiyada grafologiya kadrlar tanlash, kriminalistika va hatto tibbiyot sohalarida ishlatiladi. Grafologiya shuningdek ruhiy kasalliklarni oldindan aniqlashda, nevrologik muammolarni kuzatishda va pedagogik psixologiyada qo'llaniladi. Shu orqali u ilmiy va amaliy sohada keng qamrovli qo'llanilmoqda.

Hissiy holat va yozuv uslubi, Qo'l yozuvi va shaxsiyat turlari, Ruhiy kasalliklar va qo'l yozuvi kabi bo'limlarda turli misollar bilan izoh berilgan.

Grafologiya hali ham bahsli soha bo'lib, ba'zi olimlar uni psevdolim deb hisoblashadi, chunki uning aniq ilmiy isboti mavjud emas. Shunga qaramay, Fransiyada u hali ham mashhur va qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Grafologiya inson ruhiyati bilan bevosita bog'liq, chunki qo'l yozuvi odamning hissiyotlari, kayfiyati va ruhiy holatini aks ettirishi mumkin. Bu bog'liqlik asosan qo'l yozuvi shakli, bosimi, ritmi va harflar orasidagi munosabatlar orqali aniqlanadi.

1. Hissiy holat va yozuv uslubi

Barqaror ruhiyat: Yozuvi tartibli, harflari bir xil va muvozanatli bo'lgan odamlar odatda ruhiy jihatdan barqaror bo'lishadi.

Stress va tashvish: Agar yozuv notekis, harflar titrab yoki har xil o'lchamda yozilgan bo'lsa, bu insonning asabiyligi yoki stress holatida ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Depressiya: Juda mayda yoki pastga qarab egilgan yozuv depressiv kayfiyatni bildirishi mumkin. Yozish tezligining pasayishi ham ruhiy charchoq belgilaridan biridir.

Agitasiya (bezovtalik, asabiylik): Juda tez yozish, yozuvning notekisligi va juda ko'p chiziqlar yoki qo'shimcha belgilar odamning ruhiy bezovtaligini ifodalashi mumkin.

2. Qo'l yozuvi va shaxsiyat turlari

Ekstravert va intravertlar: Katta, ochiq va keng joy egallagan yozuv odatda ochiqko'ngil va ijtimoiy odamga xos bo'lsa, kichik va siqilgan yozuv ichki dunyosiga ko'proq berilgan, introvert insonlarni ifodalaydi.

Avtoritar va dominant xarakter: Juda kuchli bosim bilan yozilgan yozuv hamda keskin va qattiq harflar odamning o'ziga ishonchi yuqori ekanini yoki buyruq berishga moyilligini ko'rsatishi mumkin.

Nozik va sezgir shaxslar: Yengil bosim bilan yozilgan, harflari yumshoq va egiluvchan odamlar odatda sezgir va emosional bo'lishadi.

3. Ruhiy kasalliklar va qo'l yozuvi

Grafologiya ba'zan psixologlar va nevrologlar tomonidan ruhiy kasalliklarni oldindan aniqlashda ham qo'llaniladi.

Shizofreniya: Ba'zi tadqiqotlar shizofreniya bilan kasallangan odamlarning yozuvi odatiy tartibdan chetga chiqishini, harflar o'zgaruvchanligini yoki notekis joylashishini ko'rsatgan.

Parkinson kasalligi: Qo'l titrashi natijasida yozuv mayda va siqilgan bo'lib qolishi mumkin.

Bipolyar buzilishlar: Yozuv kayfiyat o'zgarishiga qarab keskin o'zgarishi mumkin – maniya holatida juda tez va yirik yozilsa, depressiya fazasida sekin va kichik bo'lishi mumkin.⁵

Ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq, Crépieux-Jamin grafologiya bo'limida 7 janr va 175 turdagi yozuvni aniqlagan bo'lsa, boshqa bir guruh fransuz grafologlari esa 9 janr va 189 turi mavjudligini ta'kidlashlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Har bir inson ba'zida o'z yaqinlaridan xat qabul qilganida, eng avvalo husnixat to'g'risida o'zining ijobiy yoki salbiy bo'lgan birinchi ehtirosli va ruhiy munosabatini bildiradi. Boshqa tomondan esa o'zingizning husnixatingiz bilan solishtira boshlaysiz. Bu esa bizning husnixatimiz bir-biriga o'xshaydi degan fikrga ham borishingiz mumkin. Aksincha mazkur xat orqali siz insonlar bir-biriga umuman o'xshamas ongli mavjudot ekanligiga yana bir bora iqrar bo'lasiz. Ba'zi hollarda bu insonni xati nimaga egilgan, cho'ziq, dumaloq, tepaga qarab yozilgan yoki pastga qarab yozilgan degan fikrlar ongingizda aylanib yurveradi. Bunday vaziyatlarda o'zingiz bilmagan holda grafologiya ustida bosh qotirgan bo'lasiz.

Shuni ta'kidlash mumkinki, grafologiya – insoniyat haqidagi ilmiy ta'limotdir. Ya'ni bu ta'limotda har bir insonning hissiyotlarini, ruhiy holatlarini, xarakterini, ichki kechinmalarini, xushchaqchaq yoki jiddiyligini, o'ziga bo'lgan ishonchining turli darajalarini, shu bilan birga, o'z kasbi yuzasidan tajriba darajalarini ham aniqlash mumkin. Shu bilan birga, yuqoridagi misollardan shuni tushunish mumkinki, grafologiya bo'limi so'zlarni, harflarni qay tartibda yozilishi insonlar ruhiyatini, xarakterini, ichki dunyosini, bir so'z bilan aytganda, barcha ichki kechinmalarini va ruhiy holatini yaqqol ko'rsatib beradi.

5 Michelle Sardin. La graphologie. Groupe Eyrolles, 2010. P-215.



Tilshunosikda tovushlarning stilistik xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi sohasi fonostilistika hisoblanadi va bu soha nutqdagi tovush balandligi, tovush kuchi, tovush cho'ziqligi, tovush tembri singari jihatlarini tahlil qiladi, ularda emotsional-ekspressiv xususiyatlar mavjudligiga e'tibor qaratishi bilan birga ularning darajasini ko'paytirib yoki kamaytirish xususiyatiga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Березин Ф.М. История лингвистических учений. М.: Высш.шк., 1975. –С.5
2. Абдуазизов А. Фонологическая система современного узбекского языка. – Ташкент, 1974. – С.56.
3. D.Sh.Islomov. "Fransuz va o'zbek tillarida fonostilistik vositalarning diskursiv-pragmatik tahlili" diss. Buxoro-2023. –B.41.
4. Michelle Sardin. La graphologie. Groupe Eyrolles, 2010. P-141.
5. Michelle Sardin. La graphologie. Groupe Eyrolles, 2010. P-215.
6. Islomov D. HIS-TUYG'UNING PAYDO BO'LISHI, UNING ASOSIY HOLATLARI PSIXOLOG OLIM KERROLL ELLIS IZARD TALQINIDA //Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 2. – С. 96-96.
7. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "THE EMERGENCE OF PSYCHOLINGUISTICS, THE SCIENTISTS'SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS AND ITS CONNECTION WITH OTHER SCIENCES." JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN 6.5 (2023): 213-218.
8. Shomurodovich I. D. LE ROLE DE L'EMOTION EN PHONOPSYCHOLOGIE //Conferencea. – 2023. – С. 77-79.
9. Shomurodovich I. D. À propos du terme phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – С. 45-47.
10. Islomov D. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЯ ФОНЕМЫ И ФОНОСТИЛИСТИКИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
11. Ислмов Д. Ш. Поэтические формы как культуроведческий компонент при обучении иностранному языку // Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2015. – №. 1. – С. 23-29.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100